

HARAKATLAR STRATEGIYASIDAN TARAQQIYOT STRATEGIYASI SARI.

Dusmatova Sunbula Mamayusuf qizi

Termiz davlat pedagogika instituti Pedagogika yoʻnalishi

I kurs magistranti.

Boboyeva Sitora Roʻzimaxmatovna

Termiz davlat pedagogika instituti PhD.

Annotatsiya: Maqolada Yangi Oʻzbekistonni barpo etishning zarur siyosiy huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-maʼrifiy asoslarini yaratish, jahon miqyosidagi murakkab jarayonlarni va respublikada bosib oʻtilgan taraqqiyot natijalarini chuqur tahlil qilgan holda 2022– 2026- yillarga moʻljallanan “Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari” tamoyilini oʻrganish, Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasining yettita ustuvor yoʻnalishi hamda taraqqiyotning yangi bosqichida Yangi Oʻzbekiston hukumatining Respublikada Uchinchi Renessans poydevorini yaratish borasida amalga oshirayotgan islohotlar strategiyasi mazmun va mohiyati toʻgʻrisida baʼzi mulohazalar keltirilgan.

Kalit soʻzlar: Yangi Oʻzbekiston, siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy-maʼrifiy asoslar, jahon, jarayon, taraqqiyot, “Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari”, Uchinchi Renessans, islohotlar strategiyasi.

ОТ СТРАТЕГИИ ДЕЙСТВИЙ К СТРАТЕГИИ РАЗВИТИЯ.

Аннотация: В статье рассматривается принцип создания необходимых политико-правовых, социально-экономических и научно-образовательных основ для построения Нового Узбекистана, анализируются комплексные процессы в глобальном масштабе и результаты развития, достигнутые в республике, «Стратегия действий – Желтая часть стратегии развития» на 2022-2026 годы, семь приоритетных направлений стратегии развития Нового Узбекистана, а также приводятся комментарии к содержанию и сути стратегии реформ,

реализуемой Правительством Нового Узбекистана для создания Третьего Возрождения в Республике на новом этапе развития.

Ключевые слова: Новый Узбекистан, политико-правовые, социально-экономические, научно-образовательные основы, мир, процесс, развитие, «Из стратегии действий — желтый цвет стратегии развития», Третий Ренессанс, стратегия реформ.

FROM THE STRATEGY OF ACTIONS TO THE STRATEGY OF DEVELOPMENT.

Abstract: The article explores the principle of creating the necessary political, legal, socio-economic and scientific-educational foundations for the construction of New Uzbekistan, studying the complex processes on a global scale and the results of development achieved in the republic, the “Strategy of Actions - the Yellow of the Development Strategy” for 2022-2026, the seven priority areas of the development strategy of New Uzbekistan, and Some comments are made on the content and essence of the reform strategy being implemented by the Government of New Uzbekistan to create the Third Renaissance in the Republic at a new stage of development.

Keywords: New Uzbekistan, political-legal, socio-economic, scientific-educational foundations, world, process, development, “From the Strategy of Actions - the Yellow of the Development Strategy”, Third Renaissance, reform strategy.

Bugungi kunda O‘zbekistonning jahondagi nufuzi o‘shib bormoqda. Bu nafaqat davlatning har tomonlama puxta o‘ylangan, qat’iy va mustaqil tashqi siyosati natijasi, balki mamlakatda olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlar ya’ni, jamiyat va davlat qurilishi tizimini takomillashtirish, qonun ustuvorligini va inson huquqlarini ta’minlash, demokratik va bozor islohotlarini amalga oshirishda erishilayotgan yutuqlarning xalqaro hamjamiyat tomonidan e’tirof etilishi hamdir.

Yurtimizda 2017-2021 yillar mobaynida, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi doirasida davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida tub islohotlar amalga oshirildi. Bundan ko‘zlangan maqsad - Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish

uchun birinchi navbatda, mustahkam Konstitutsiyaviy huquqiy poydevor yaratish muhim vazifa qilib qo'yilgan edi. Harakatlar strategiyasi doirasida keyingi yillar mobaynida respublikada jamiyat va davlat qurilishi tizimini takomillashtirish, qonun ustuvorligini va inson huquqlarini ta'minlash, iqtisodiyotni liberallashtirish, ijtimoiy sohani rivojlantirish, aholi turmush darajasini yaxshilash, davlat organlarining hisobdorligi va ochiqligini kuchaytirish fuqarolik institutlarining hamda jamiyati rolini yanada oshirish bo'yicha bir qator tizimli ishlar amalga oshirildi. Bu esa Yangi O'zbekiston barpo etish yo'lida ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ilmiy va ma'naviy - ma'rifiy asoslar yaratilishida muhim omil bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2022-yil 28-yanvar kuni "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmon imzolandi. Mazkur Farmon bilan 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi qabul qilindi va "Harakatlar strategiyasidan — Taraqqiyot strategiyasi sari" tamoyiliga asosan quyidagi yettita ustuvor yo'nalishdan iborat etib tasdiqlandi:

1-ustuvorlik: inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish (1-12-maqсадlar);

2-ustuvorlik: mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish (13-20- maqsadlar);

3-ustuvorlik: milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash (21-36-maqсадlar);

4-ustuvorlik: adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish (37-70-maqсадlar);

5-ustuvorlik: ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish (71-78-maqсадlar);

6-ustuvorlik: milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda umumbashariy muammolarga yondashish (79-88-maqсадlar);

7-ustuvorlik: mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish, ochiq, pragmatik va faol tashqi siyosat olib borish (89-100-maqсадlar).

Ushbu Strategiya besh bosqichda amalga oshirilishi belgilanib, jami 100 ta maqsad hamda ushbu maqsadlarni amalga oshirishga oid “Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturi qabul qilindi. Ma’lumki, mazkur Farmon loyihasi 2021-yilning 30-dekabridan 2022-yilning 15-yanvar kuniga qadar 2022-2026.strategy.uz, regulation.gov.uz va jamoatchilik.uz portallari orqali keng jamoatchilik muhokamasidan o‘tkazildi. Muhokamalar davrida Farmon loyihasining mazmun-mohiyatini keng aholi qatlamiga yetkazish maqsadida tele-radio kanallarda ko‘rsatuvlar, suhbatlar efirga uzatildi, shuningdek elektron ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda bosma materiallar muntazam ravishda chop etilib borildi.

2022-2026 yillarga mo‘ljallangan “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi”, degan nomning mazmun-mohiyatini yoritishda quyidagi bir qator muhim omillar dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Birinchi omil: ushbu nom Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi – Harakatlar strategiyasining mantiqiy davomi ekanini anglatadi.

Ikkinchi omil: Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida “Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari” tamoyiliga muvofiq, Harakatlar strategiyasidagi har bir yo‘nalishni taraqqiyotning yangi bosqichida mantiqiy va izchil asosda rivojlantirish hamda yangi ustuvor yo‘nalishlarda muhim natijalarga erishish rejalashtirildi.

Uchinchi omil: inson qadrini joyiga qo‘yishning qonuniy va tashkiliy huquqiy jihatdan mustahkamlash bilan bo‘liq bo‘lib, Harakatlar strategiyasining har bir ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha 2022 yilga qadar 26 ta konsepsiya va bir qator dasturlar qabul qilingan bo‘lsa, kelgusida Taraqqiyot strategiyasi doirasida 13 ta kodeks, 12 ta qonun, ya’ni har bir ustuvor yo‘nalishda zarur qonun hujjatlari qabul qilinishi rejalashtirildi.

Xulosa qilib aytganda, Yangi O‘zbekiston strategiyasining maqsadi – yurtimizning baxtli va barkamol insonlar farovon yashaydigan, ijtimoiy adolat tamoyillari to‘liq qaror topgan, dunyoning eng rivojlangan, barqaror o‘sayotgan va

inson kapitali yuqori bo'lgan demokratik davlatlari qatoridan joy olishini ta'minlashdir.

Yangi O'zbekistonning 2022-2026 yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi doirasida mutlaqo yangi milliy huquqiy tizim shakllanmoqda. Bu davrda “inson, uning huquqlari, erkinliklari, ayniqsa, qadri – eng muhim qadriyat” degan tamoyil e'tirof etilmoqda. Shu munosabat bilan milliy qonunchilik va huquqiy amaliyotda “shaxs – jamiyat – davlat” tamoyilini mustahkamlanib, Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida yillar davomida amal qilib kelgan “davlat – jamiyat – inson” tamoyili “inson – jamiyat – davlat” tamoyiliga o'zgartirildi. Xalq bilan bevosita muloqot qilish, yurtdoshlarimizning dardu tashvishlari, muammolarini ijobiy hal etish bo'yicha mutlaqo yangi demokratik tizim – Xalq qabulxonalari 2017 yildan buyon faoliyat yuritib kelmoqda va o'zini oqladi. Bundan tashqari barcha davlat organlari faoliyatida “xalq dardiga quloq solish”, muammolarni joyida hal etish va xalqni rozi qilish bo'yicha samarali ishlar qilinmoqda. “Xalq bilan muloqotning samarali mexanizmlarini takomillashtirish” muhim vazifa etib belgilandi.

Umuman olganda, “Yangi O'zbekiston Taraqqiyot strategiyasi”da aks etgan maqsad va vazifalar respublikada “Inson qadri uchun” degan ustuvor tamoyilni to'la ro'yobga chiqarish – davlati rahbari Sh.Mirziyoyevning ezgu sa'y-harakatlarida bosh mezon bo'lib qolganligidan dalolat beradi. Su bilan birga Taraqqiyot strategiyasida belgilangan maqsadlarni to'laqonli amalga oshirishda barchamizdan mustahkam iroda va qat'iy intizom, bor imkoniyatlarni to'la safarbar qilish talab etiladi. Albatta, bunda har birimiz faol bo'lishimiz, bir kuch, bir qudrat bo'lib Yangi O'zbekistonni barpo etishda o'z hissamizni qo'shishimiz lozim. Zero, Prezident Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, “hamma islohotlarni, hamma harakatlarni jamiyat bilan birga qilamiz. Hammamiz bir kuch, bir qudrat bo'lib xalqimizga xizmat qilishimiz kerak”.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev. Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatdarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. T., "O'zbekiston". 2017. 23 bet
2. Mirziyoyev. Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. T., "O'zbekiston". 2022. 416 bet
3. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson ma'nfaatlari ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yiliga bag'ishlangan tantanali marosimidagi ma'ruzasi. - Toshkent: O'zbekiston. 2017
4. Mustaqil O'zbekiston tarixi. Mas'ul muharrir A.Sabirov. - Toshkent: Akademiya, 2013.
5. Новейшая история Узбекистана. Руководитель проекта и редактор. М.А.Рахимов. - Toshkent: Adabiyot uchqunlari, 2018.
6. O'zbekistonning eng yangi tarixi. R.H.Murtazayeva, A.A.Ermetov, A.A.Odilov. - Toshkent, 2023.
7. O'zbekistonning eng yangi tarixi xrestomatiyasi. A.Sabirov, S.Pulatova. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2014. 328 b.
8. Saydaliyeva N, Usarova F. Strategiya deystviy - osnova novogo Uzbekistana. Tashkent: Nodirabegim, 2020. - 302 s.